SALOMLASHISH – MULOQOT KO‘PRIGI: DUNYO TAJRIBASI, DINIY ASOSLAR VA O‘ZBEK XALQ QADRIYATLARI

Buxoro innovatsion ta’lim va tibbiyot universiteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ibragimova Shaxina Nurali qizi
shaxinaibragimova.1997@gmail.com
+998 95 189-44-54

Annotatsiya. Ushbu maqolada salomlashish odobi — uning mohiyati, ahamiyati va turli xalqlardagi o‘ziga xos ko‘rinishlari tahlil qilinadi. Maqolada dunyo xalqlarining salomlashish udumlari (hind, afg‘on, ingliz, fransuz, yapon va koreys xalqlari misolida) o‘zbek xalqi an’analari bilan qiyoslanadi. Shuningdek, o‘zbek xalqida kimga, qachon va qanday salom berish lozimligi, salomlashishning oilaviy va ijtimoiy hayotdagi o‘rni yoritiladi. Maqolaning asosiy g‘oyasi — ko‘pchilik tomonidan “oddiy odob-axloq qoidasi” deb qaraladigan salomlashishning aslida insoniy munosabatlar, hurmat va mehr-oqibatning chuqur ifodasi ekanini isbotlashdan iboratdir. Bu fikr payg‘ambarimiz hadislari hamda Burhoniddin Marg‘inoniy, Yusuf Xos Hojib kabi ulamolarning asarlaridan keltirilgan dalillar bilan asoslab beriladi. Maqola yosh avlodni ajdodlar merosiga sodiq qolib, ushbu qadriyatni asrab-avaylashga chorlash bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: salomlashish, odob-axloq, milliy qadriyat, hadis, ulamolar fikri, xalqaro an’analar.

Abstract. This article analyzes the etiquette of greetings — its essence, importance and specific manifestations in different nations. The article compares the greeting customs of the peoples of the world (on the example of the Indian, Afghan, English, French, Japanese and Korean peoples) with the traditions of the Uzbek people. It also discusses who, when and how to greet the Uzbek people, and the role of greetings in family and social life. The main idea of the article is to prove that greetings, which are considered by many to be “simple rules of etiquette”, are actually a deep expression of human relationships, respect and kindness. This idea is substantiated by evidence from the hadiths of our Prophet and the works of scholars such as Burhoniddin Marginoni and Yusuf Khos Hajib. The article concludes with an appeal to the younger generation to remain faithful to the heritage of their ancestors and preserve this value.

Keywords: greetings, etiquette, national values, hadith, scholars’ opinions, international traditions.

Аннотация. В данной статье анализируется этикет приветствий — его сущность, значение и специфические проявления в разных странах. В статье сравниваются обычаи приветствий народов мира (на примере Индии, Афганистана, Англии,

Франции, Японии и Кореи) с традициями узбекского народа. Также рассматриваются вопросы о том, кто, когда и как должен приветствовать узбеков, и роль приветствий в семейной и общественной жизни. Главная идея статьи — доказать, что приветствия, которые многие считают «простыми правилами этикета», на самом деле являются глубоким выражением человеческих отношений, уважения и доброты. Эта идея подкрепляется свидетельствами из хадисов нашего Пророка и трудами таких учёных, как Бурхониддин Марджинони и Юсуф Хос Хаджиб. Статья завершается призывом к молодому поколению оставаться верным наследию своих предков и сохранять эту ценность.
Ключевые слова: приветствия, этикет, национальные ценности, хадисы, мнения учёных, международные традиции.

Salomlashish – million yillar oldindan to hozirgi kunga qadar barcha millatlar o‘rtasida o‘z mavqeyini yo‘qotmagan qadriyatdir.

Bugungi yoshlar o‘rtasida bu an’anaga biroz beparvolik bilan qaralayotgani insonni tashvishga soladi. Bu masala bo‘yicha nafaqat ota-ona va tarbiyachilar, balki barchamiz e’tiborli bo‘lishimiz kerak. Payg‘ambarlarimiz, jadidlarimiz, olim va ulamolarimiz ham o‘z so‘zlari va asarlarida ta’lim-tarbiya jarayonida salom berishning alohida o‘rni borligi haqida aytib o‘tishgan. Shunday bo‘lsa-da, hozirgi avlodning bunday asarlarga e’tibori pasayib ketgandek.

Men ushbu maqolamni yozishdan asosiy maqsadim — “oddiy odob-axloq tushunchasi” bo‘lgan salomlashishning aslida insoniy munosabatlarning, hurmat va mehr-oqibatning ko‘zgusi ekanligini anglatishdir.

Dunyo bo‘yicha qancha mamlakat bo‘lsa, har birining o‘ziga xos qadriyatlari bor. Lekin qayerga borsangiz ham, avvalo odob yuzasidan salom berib, so‘ng suhbatni boshlaydilar. Ya’ni bu an’ana barcha xalqlarni jipslashtiradigan, mehr, hurmat va e’tiborni bildirishning eng sodda, ammo chiroyli usulidir.

Dunyodagi barcha madaniyatli xalqlar o‘zaro insoniy munosabat, muomala va muloqotni salomlashishdan boshlaydi. Har bir xalqning salomlashish bilan bog‘liq o‘ziga xos urf-odatlari bor. Hindlar qo‘l kaftlarini birlashtirib, peshonasiga tirab salomlashsa, afg‘onlar yuzlarini yuzlariga surkagancha yelka urishtirib salomlashadi, inglizlar esa bosh kiyimlarini olib, yengil ta’zim qilishadi [1, 63-bet]. Fransuzlar “bonjour” — “yaxshi kun” yoki “kuningiz yaxshi o‘tsin” degan ma’noda salomlashadi [2, 30-bet]. Yapon va koreys xalqlari salomlashganda boshlarini biroz egib salom berishadi (yoshi kattalar oldida va rasmiy joylarda bosh ko‘proq egiladi); bu ularda hurmat belgisidir.

Salom so‘zining ohangi yoki harakatlari har xil bo‘lsa-da, ularning barchasi sog‘lik, baxt, yaxshilik tilash va hurmatni ifodalaydi. Biz o‘zbeklar, barcha islom dunyosi xalqlari singari, bir-birimizni ko‘rganimizda “Assalomu alaykum” deya qo‘l olishib ko‘rishamiz. “Assalomu

alaykum” iborasi arabchada “sizga tinchlik tilayman” degan ma’noni bildiradi. “Va alaykum salom” esa “sizga ham tinchlik tilayman” — javob salomi hisoblanadi [2, 61-bet].

To‘g‘ri salomlashish “Assalomu alaykum”, “Salom alaykum”, “Salom” shakllarida bo‘lib, ularning aytilishida noto‘g‘ri joy yo‘q [2, 63-bet].

Shuningdek, kamchilik ko‘pchilikning hurmatini qilishi shart va farzdir. Otliq yoki mashinadagi kishi to‘xtaganda, piyodaga salom berishi lozim. Yurgan o‘tirganga, o‘tirgan esa yotganga salom berishi qarzdir. Chunki harakatning sustligiga qarab, keksalik yoki bemorlik belgilanadi [2, 63-bet].

Salomlashish samimiy bo‘lib, birovning mansabi, mavqei, kiyim-boshi yoki boshqa xislatlariga qarab emas, balki birxilda bo‘lishi kerak. Aks holda, oddiyroq odamga oddiy, amaldor yoki mavqei yuqoriroq odamga o‘ta takalluf bilan salom berilsa, bu xushomadgo‘ylikka o‘xshab qoladi [4, 180-bet].

Dunyo xalqlarining salomlashish udumlari har xil bo‘lsa-da, o‘zbek xalqining bu boradagi odobi alohida e’tirofga va ma’naviy boylikka ega, chunki unda nafaqat an’ana, balki diniy va axloqiy asos ham mujassam. Ammo bugungi kun bilan taqqoslasak, achinarlisi shundaki, boshqa xalqlar o‘z udumlarini asrab-avaylab kelayotgan bir paytda, biz ba’zan o‘zimizning boy madaniyatimizni e’tibordan chetda qoldirmoqdamiz. Avvalo, ularning qanday ketma-ketligi va odob qoidalari borligini ko‘rib chiqishimiz kerak.

Oilada ertalab farzandlar uyqudan turgach, yuz-qo‘lini yuvib, ota-onasiga, boshqa oila a’zolariga, oilada mehmon bo‘lsa mehmonga salom berishlari odobdandir. Insonning kunlik faoliyati ertalabki salom-alikdan boshlansa, bu tinchlik va sog‘-salomatlikdan nishonadir [4, 181-bet].

Yangi kelin bo‘lib tushgan qizning qaynona va qaynota oldida, qarindosh-urug‘lari oldida boshyalang salom-alik qilishi odobsizlik hisoblanadi. Telefonda so‘zlashayotganda birinchi bo‘lib telefon qilgan odam “Assalomu alaykum” deb salom beradi va: “Men falonchiman, falon joydan, falon masalada bezovta qilyapman”, deydi. Kechqurun soat 22:00 dan ertalab soat 7:00 gacha, u kim bo‘lishidan qat’iy nazar, birovlarning uyiga telefon qilish odobdan emas [4, 180-bet].

Keksalarni e’zozlash va ularga hurmat ko‘rsatish maqsadida yoshlar birinchi bo‘lib salom beradi.

Bu o‘rinda savol tug‘iladi — nega aynan salomlashishga bunchalik katta ahamiyat berilgan? Javobni dinimizning asosiy manbalaridan, payg‘ambarimiz hadislaridan va ulamolarimiz fikrlaridan topishimiz mumkin. Yuqorida ko‘rib o‘tganimiz milliy odobning tub mohiyatini tushunish uchun, uning diniy-ma’naviy zaminiga ham nazar tashlashimiz lozim.

Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vassallam butun umrlari davomida kishilarga, ular kim bo‘lishidan qat’iy nazar — xoh shoh, xoh gado bo‘lsin — birinchi bo‘lib salom berishga ulgurganlar. Biz ota-bobolarimizning bu axloqiy meroslarini gard yuqtirmay, o‘zimizdan keyingi avlodlarga qoldirishimiz lozim [2, 30-bet].

Rasulullоh sollallohu alayhi vassallamdan bir kishi so‘radi: “Amallardan eng yaxshisi qaysidir?” Javob berdilar: “Ochlarga taom berish, tanigan va tanimaganlarga salom bermoqdir” [2, 29-bet].

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Nabiy sollallohu alayhi vassallam: “Ey o‘g‘lim, qachonki uyingga kirib borsang, ahli oilangga salom berib kirgin. Shunda senga ham, ahli oilangga ham baraka bo‘ladi”, dedilar (Imom Termiziy rivoyati) [3, 31-bet].

Burhoniddin Marg‘inoniy hazratlari “Odob-axloq, tarbiya” risolasida: “Kattalar qo‘l cho‘zgandan keyin kichiklar ta’zim qilib, kattalarning hurmatini joyiga qo‘yib, qo‘l berishi kerak”, deb yozgan [5].

Yusuf Xos Hojib: “Salom berishdan asl maqsad — salom beruvchining alik oluvchiga omonlik berayotganini, unga xotirjamlik ato etayotganini, unga nisbatan yomon niyati yo‘qligini, ayni paytda hurmat-ehtirom ko‘rsatishdan iboratdir”, deb yozgan ekan [5].

Ko‘rib turganimizdek, payg‘ambarimiz va ulamolarimizning bu boradagi fikrlari bizga salomlashish shunchaki odat emas, balki savob va ibodat ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Demak, har bir salom — bu nafaqat insoniy muomala, balki Alloh roziligi uchun qilingan ibodatdir. Shuni anglagan holda, salomlashishga bo‘lgan munosabatimizni qayta ko‘rib chiqishimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, dunyo xalqlarining salomlashish udumlari qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, ularning barchasida bitta umumiy mohiyat yotadi — bu hurmat, mehr va yaxshilik tilashdir. O‘zbek xalqi esa bu qadriyatga nafaqat milliy an’ana, balki diniy-ma’naviy zamin sifatida ham qaraydi, chunki payg‘ambarimiz va ulamolarimiz salomlashishni oddiy odat emas, balki savob va ibodat darajasiga ko‘targanlar. Ushbu qadriyatning asl mohiyatini anglab, uni kelajak avlodlarga asrab-avaylagan holda yetkazish — har bir jamiyat a’zosining ma’naviy burchi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmud Sattorov. O‘zbek milliy udumlari, “Salom va alik” bo‘limi. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi “Fan” nashriyoti, 1993.
2. Jo‘rayev S., Qodirov X. Odob saboqlari. — Buxoro, 1996.
3. Rahimov Abdulbosit. mirarabmadrasa.uz, 2023.
4. Norqo‘ziyev Sodiqjon. Axloqning asosiy me’yorlari. — Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2019.
5. Kattaboyev Muhammadali. Salom — hurmat belgisi. muslim.uz, 2017.